

## **YURISTNING POLEMIK MAHORATINI OSHIRISH USULLARI**

**Dildora Raxmonova**

Toshkent davlat yuridik universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti v.b., PhD

**Yerlan Alashbayev,**

Xoja Ahmat Yassaviy nomidagi XQTU Turk filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviy yurist faoliyatida polemik mahorat va nutq madaniyatining tutgan o'rni, ijtimoiy-huquqiy ahamiyati hamda funksional xususiyatlari tizimli tahlil qilinadi. Huquqshunoslik amaliyotida tez-tez uchraydigan bahs, munozara, mubohasa, tortishuv va debat kabi kommunikativ tushunchalarning lingvo-yuridik tabiati ochib berilib, ularning o'zaro farqli hamda o'xshash jihatlari qiyosiy jihatdan yoritiladi. Shuningdek, maqolada sud ritorikasi va yuridik nutq amaliyotidagi bahslarning maqsadli tasnifi (klassifikatsiyasi) taklif etilgan bo'lib, yuristning kasbiy kompetensiyasi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda polemik muloqot strategiyalarining o'rni ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.*

***Kalit so'zlar:** polemik mahorat, bahs, munozara, tortishuv, debat, lingvo-yuridik kompetensiya, argumentatsiya, kontrargumentatsiya, sud ritorikasi, huquqiy madaniyat.*

Zamonaviy huquqiy munosabatlar tizimida yuristning kasbiy muvaffaqiyati nafaqat huquqiy bilimlar darajasi, balki muloqot va bahs yuritish madaniyatiga ham bevosita bog'liqdir. Huquqiy nizolarni hal etish, sud jarayonlarida ishtirok etish, muzokaralar olib borish hamda turli manfaatlar to'qnashuvi sharoitida asoslangan pozitsiyani himoya qilish yuristdan yuqori darajadagi polemik mahoratni talab etadi. Shu bois polemik kompetensiyani shakllantirish huquqshunos mutaxassislarni tayyorlashning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Polemik mahorat deganda shaxsning muayyan masala yuzasidan o‘z nuqtayi nazarini mantiqiy asoslash, dalillar bilan himoya qilish, qarshi tomonning fikrlarini tahlil etish va zarur hollarda rad eta olish qobiliyati tushuniladi. Ushbu mahorat bahs mavzusini chuqur bilish, bahs madaniyati qoidalariga amal qilish, argumentatsiya va kontrargumentatsiya usullaridan samarali foydalanish kabi ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi. O‘z kasbining chin ustasi bo‘lgan huquqshunos ko‘plab muammolarga faqatgina ochiq va oshkora fikr almashish yo‘li bilan yechim topishi mumkin. Hayotiy muhim masalalarni to‘g‘ri va samarali muhokama qilishni, o‘z nuqtayi nazarini isbotlay olishni va unga ishontira olishni hamda unda qat’iy tura olishni va qarshi tomonning fikrlarini inkor eta olishni bilish, ya’ni, munozaraga kirisha olish mahoratiga ega bo‘lish har bir yuristda mavjud bo‘lishi kerak bo‘lgan sifatlaridan biridir. Munozaraga kirisha olish mahorati tushunchasi tarkibiga bahs mavzusini bilish, ommaviy bahs mohiyatini va uning turlarini tushunish, bahslashish madaniyatining asosiy talablariga amal qilish, ilgari surilgan holatni isbotlay olish va qarshi tomonning fikrlarini rad eta olish, munozara usullaridan foydalanish, qarshi tomonning dalillariga qarshi tura olish kabi sifatlarga ega bo‘lish kiradi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “bahs” tushunchasi bir necha ma’nolarda izohlanadi. Jumladan, u biror masala yoki hodisa yuzasidan o‘tkaziladigan munozara va tortishuvni, ilmiy yoki diniy adabiyotlarda muayyan muammoga bag‘ishlangan bo‘limni, shuningdek, musobaqa va bellashuvni anglatadi. Ushbu ta’riflardan ko‘rinadiki, bahs tushunchasining asosida qarama-qarshi fikrlarning mavjudligi va ularning o‘zaro to‘qnashuvi yotadi.

Ilmiy adabiyotlarda bahs odatda turli nuqtayi nazarlarning o‘zaro almashinuvi hamda haqiqatni aniqlashga qaratilgan kommunikativ jarayon sifatida

talqin qilinadi. Shu nuqtayi nazardan, bahsni muayyan masala yuzasidan qarama-qarshi qarashlarning to‘qnashuvi va har bir tomonning o‘z pozitsiyasini asoslashga intilishi bilan tavsiflanuvchi intellektual faoliyat shakli sifatida izohlash mumkin.

Bahsning muvafaqqiyati uning tuzilish xususiyati, muammolarni yechishdagi samaralilik, muayyan darajada polemistlar tarkibiga bog‘liq bo‘ladi. Ularning madaniyat darajasi, bilimi, zakovati, hayot tajribasi, bahslashish ko‘nikmalariga va bilimlariga ega bo‘lishi, ommaviy bahs qoidalarini bilishi muhim ahamiyatga ega.

O‘zbek tilida bahs hodisasini ifodalash uchun munozara, mubohasa, tortishuv, muzokara va debat kabi terminlardan ham foydalaniladi. Mazkur tushunchalar ayrim hollarda sinonim sifatida qo‘llansa-da, ularning semantik va funksional jihatdan o‘ziga xos farqlari mavjud.

Munozara bahsli masalaning eng maqbul yechimini topish maqsadida turli qarashlarni qiyoslash va tahlil qilishga qaratilgan ommaviy bahs shaklidir. Munozaraning asosiy maqsadi qarama-qarshi fikrlar orqali haqiqatni aniqlash va umumiy xulosaga kelishdan iborat.

Mubohasa ham mazmunan munozaraga yaqin bo‘lib, muhokama, fikr almashish va bahslashish jarayonini anglatadi. Biroq zamonaviy nutq amaliyotida ushbu termin nisbatan kam qo‘llaniladi.

Tortishuv esa munozaradan maqsad jihatidan farq qiladi. Unda asosiy e’tibor umumiy yechim topishga emas, balki o‘z pozitsiyasini himoya qilish va qarshi tomonning fikrlarini rad etishga qaratiladi. Shu sababli tortishuvda qarama-qarshilik darajasi nisbatan yuqori bo‘ladi. Biroq ilmiy va ijtimoiy ahamiyatga ega tortishuvlarning bosh maqsadi faqat g‘alaba qozonish emas, balki muhim

muammolar yuzasidan asoslangan qarorlar ishlab chiqishga xizmat qilishdan iboratdir.

Debat va muzokara tushunchalari ham bahsning alohida ko‘rinishlari hisoblanadi. Debat odatda muayyan masala yuzasidan fikr almashish va qarashlarni himoya qilishga qaratilgan ommaviy muhokama shakli sifatida namoyon bo‘ladi. U ko‘pincha ilmiy konferensiyalar, majlislar, seminarlar va jamoatchilik muhokamalarida uchraydi.

Ilmiy-metodik adabiyotlarda bahslarni tasniflashga oid turli yondashuvlar mavjud. Biroq hozirgi kunga qadar bahslarning universal va yakuniy tasnifi ishlab chiqilmagan. Tadqiqotchilar odatda bahsning maqsadi, ishtirokchilari soni va o‘tkazilish shaklini asosiy mezon sifatida qabul qiladilar.

Maqsadiga ko‘ra bahslarni quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- haqiqatni aniqlash uchun olib boriladigan bahs;
- muayyan shaxs yoki auditoriyani ishontirishga qaratilgan bahs;
- g‘alaba qozonish maqsadidagi bahs;
- bahs yuritish jarayonining o‘zi ustuvor bo‘lgan bahs.

Har bir tur o‘zining kommunikativ strategiyasi va argumentatsiya usullariga ega bo‘lib, ishtirokchilardan turli darajadagi polemik tayyorgarlikni talab qiladi.

Yuristning polemik mahorati bahs jarayonining muvaffaqiyatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bahs samaradorligi ko‘p jihatdan uning ishtirokchilarining intellektual salohiyati, huquqiy bilimlari, nutq madaniyati, hayotiy tajribasi hamda argumentatsiya ko‘nikmalariga bog‘liqdir. Ayniqsa, sud jarayonlari, muzokaralar va huquqiy nizolarni hal etishda dalillarni to‘g‘ri tanlash, ularni mantiqiy izchillikda bayon qilish hamda qarshi tomonning argumentlarini tanqidiy tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli yuristlarni tayyorlash jarayonida polemik madaniyat, tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va notiqlik san'atini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Polemik mahorat yuristning kasbiy kompetensiyasini belgilovchi muhim omillardan biridir. Bahsning turli shakllari va usullarini chuqur o'zlashtirish, argumentatsiya hamda kontrargumentatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish huquqshunosning kasbiy faoliyatida yuqori natijalarga erishishiga xizmat qiladi. Shu bois yuridik ta'lim tizimida polemik madaniyatni shakllantirish va rivojlantirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, polemik mahorat yuristning shunchaki tabiiy qobiliyati yoki shaxsiy xislati emas, balki tizimli ravishda shakllantirilishi va rivojlantirilishi lozim bo'lgan professional kompetensiyasidir. Bahsning turli lisoniy shakllari va ritorik usullarini mukammal egallash, kontrargumentatsiya texnologiyalaridan qonuniy va odo-axloq normalari doirasida foydalana olish huquqshunosning kasbiy nufuzini va faoliyati samaradorligini kafolatlovchi bosh omildir. Shu sababli, yuridik ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarda polemik madaniyat, tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va notiqlik san'atini maqsadli rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur. Yuristning polemik mahoratini oshirish – bu doimiy to'xtovsiz jarayon bo'lib, u chuqur huquqiy bilim, mukammal mantiq va psixologik tayyorgarlik sintezini talab qiladi. Polemikasi kuchli yurist har qanday qonuniy bo'shliq yoki murakkab keysda ham o'z mijozining haq-huquqlarini yuqori darajada himoya qila oladi. Shu sababli, milliy yuridik ta'lim tizimida nafaqat fundamental huquqiy fanlarni, balki “Yuridik ritorika”, “Yuristning nutq madaniyati”, “Sud lingvistikasi va argumentatsiya” kabi amaliy-

gumanitar fanlarni o‘qitish ko‘lamini kengaytirish, talabalarda tanqidiy fikrlashni yuksaltirish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Isroilov M. Dialoglar ustida ishlash –T., 1996.
2. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo‘ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. – T., 2014.
3. Nurmuhammedova O‘. Nutq san’ati. – T., O‘zDSI, 2008.
4. Raxmonova D. Yuristning yozma va og‘zaki muloqot ko‘nikmasi. O‘quv qo‘llanma. – T., 2022. 127 b.
5. Sitseron. Notiqlik san’ati haqida ikki risola – T. “Yangi asr avlodi”, 2007.
6. Turabova S. Ilmiy bahs (debat, diskussiya, polemika, disput)ning mantiqiy epistemik tahlili (monografiya). – Termiz: Surxon-nashr, – 2020. – 84 b.
7. Usmonov S. Yuristning nutq madaniyati. – T., 2007.
8. Alimjonova Z., To‘laganov A.N., Nutq san’ati. – T.: Fan, 2005.
9. Ивин А.А. Искусство правильно мыслить. — Москва: Просвещение, 1990.
10. Поварнин С.И. Искусство спора: О теории и практике спора. – М., – 1993. Гл X.
11. Тарасов А.А., Шарипова А.Р. Риторика для юристов. – М., Юстиция, 2017.